Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318341

materiallar to'plami

S4S TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING STATISTIK VA PSIXOFIZIOLOGIK ASPEKRTLARI.

Zokirov Sanjar Ikromjon o`g`li, f.-m.f.f.d (PhD)
Raxmatova Gavharoy Muhamadali qizi, assistent
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg`ona filiali, Farg`ona, Uzbekiston.

Annotatsiya


Ushbu tezisda o`qitishning S4S metodi bo`yicha talabalar bilimini baholashning yulduzcha shaklidan foydalanib, o`quvchilarning darsni o`zlashtirish ko`rsatkichlarini oshirish hamda uning psixofiziologik aspektlari o`rganish masalalari ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zlar: Star for study **(**S4S) metodi, psixofiziologik aspekt, statistik baholash, yulduzcha

So'nggi yillarda ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangi yondashuv demakdir. Bunday texnologiyaga misol qilib "Star for study" texnologiyasini olishimiz mumkin.

Star for study (S4S) metodidan talabalar kompetentligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o'z ustida ishlashni yanada takomillashtirish maqsadida foydalaniladi.

Metodning asosiy maqsadlaridan biri sifatida talabalarning mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. S4S ning mohiyati shundan iboratki, talaba to'liq mustaqil ravishda (yoki ma'lum bir ko'mak bilan) o'quv va kognitiv faoliyatning aniq maqsadlariga erishadi. Bu metod xotirani ishlatishdan ko'ra fikrlash mexanizmini shakllantirishga asoslangan.



1-rasm. S4S texnologiyasining sxematik ko'rinishi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Zokirov Sanjar Ikromjon o`g`li, Raxmatova Gavharoy Muhamadali qizi (2023). S4S texnologiyasi asosida talabalar bilimini baholashning statistik va psixofiziologik aspekrtlari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318341

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ushbu texnologiya talabalarning mavzuni qanchalik o‘zlashtirganliklarini baholash hamda qisqa vaqt mobaynida har bir o‘quvchi tomonidan o‘z baho (ball) larini egallashga imkoniyat yaratadi.

Texnologiyaning samaradorligini aniqlash uchun talablardan kirish va chiqish nazorat savollari olinadi va statistik jadvali tuziladi. Bunda talabalarda nafaqat tarqatilgan materiallar va berilgan bilimlarni yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari, balki mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z ustida ishlash kabi aspektlar shakllantiradi.

Ya’ni dars boshlanishida talabalardan mavzu bo‘yicha bo‘shlang‘ich bilimlari tekshirilib, mantiqiy savollar va topshiriqlar beriladi, hamda natijalari saqlab boriladi.

S4S texnologiyasi asosida mavzu tushuntirilgandan so‘ng esa huddi shu savol va topshiriqlar qaytadan berilib, talabalar bilimi oldingi natijalar bilan solishtiriladi va texnologiyaning samaradorligi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, S4S texnologiyasi nafaqat talabalarga mavzuni o‘zlashtirish, ularni qisqa vaqt mobaynida baholash imkonini beradi, balki talabalarda o‘z ustida ishlash, mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kluge, A. The Acquisition of Knowledge and Skills for Taskwork and Teamwork to Control Complex Technical Systems. Dordrecht: Springer, 20 14. 200 p.
2. Зокиров С., Рахматова, Г. (2023). Использование компьютерных игр в современном образовании: проблемы и решения: Использование компьютерных игр в образовании. Engineering problems and innovations, 1(1), 27-34
3. С Зокиров, Г Рахматова. Применение новую педагогическую технологию “звездочка” в обучении высококвалифицированных ИТ специалистов - Research and implementation, 2023
4. GM qizi Rahmatova. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars mashg‘ulotini tashkil etish metodlari Educational Research in Universal Sciences 2 (4), 18-25